

## Qurban hayitini nishonlash to'g'risida



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

Muborak Qurban hayitining ma'nnaviy hayotimizdagi o'rni, mohiyati va ahamiyatini, xalqimizga mansub mehr-oqibat, shukronalik va bag'rikenglik ramzi ekanini e'tiborga olib, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrash va ulug'lash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy bayram – Qurban hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish haqida"gi 1991-yil 20-iyundagi PF-221-son Farmoniga muvofiq:

1. O'zbekiston musulmonlari idorasining joriy yilda Qurban hayitining birinchi kuni 24-sentabr payshanba kuniga to'g'ri kelishi haqidagi murojaatini inobatga olib, 2015-yil 24-sentabr mamlakatimizda dam olish kuni deb belgilansin va bayram sifatida keng nishonlansin.
2. Respublika "Nuroniy", "Mahalla" jamg'armalari va boshqa barcha mutasaddi idoralar, jamoat tashkilotlari Qurban hayitining joylarda tartibli va yuqori darajada, xalqimizning milliy qadriyatlariga mos ravishda o'tishi uchun tegishli tadbirlarni amalga oshirsin.
3. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Qurban hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti I.Karimov

Toshkent shahri,  
2015-yil 18-sentabr